



“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDAGI MAQOL SHAKLIDAGI LINGVOKULTUREMALAR

SH. Bobojonov,

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasini mudiri

Rashidova Gulira’no Alisher qizi,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada lingvokulturemalar hamda “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llanilgan lingvokulturologik maqollarning umumiy ma‘nosi, asarda qo‘llanilishi, shuningdek, sinonimlarining berilishi va ularning turli nomlanishi haqida so‘z yuritiladi.*

Аннотация: *В данной статье говорится об общем значении лингвокультурных выражений и лингвокультурных пословиц, использованных в романе «O‘tkan kunlar», их использовании в произведении, а также приводятся их синонимы и их разные названия.*

Abstract: *This article talks about the general meaning of linguocultural expressions and linguocultural proverbs used in the novel "O'tkan kunlar", their use in the work, as well as giving their synonyms and their different names.*

Kalit so‘zlar: *Lingvokulturema, maqol, tarix, xalq, madaniyat, milliy, predmet.*



Ключевые слова: Лингвокультурема, пословица, история, народ, культура, нация, предмет.

Key words: Lingvokulturema, proverb, history, people, culture, national, subject.

KIRISH

“O‘tkan kunlar” romani bamisoli ulkan va tiniq ko‘zgu, unda o‘zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatları, ruhiy ma’naviy dunyosi, bo‘y-basti, qiyofasi keng ko‘lamda aniq-ravshan tasvirlanadi. Abdulla Qodiriyning asarlaridagi estetik go‘zallik bevosita mahoratga, yozuvchining izlanishlari, ijodning mehnat-mashaqqati, faqat san’atkorgagina xos nazari bilan ham bog‘liq. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida xalqning o‘sha davrdagi milliy va madaniy madaniyatga xos bo‘lgan maqol va iboralari yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Misol uchun **“Yurgan daryo, o‘lturgan bo‘yro”** maqoli Akram hoji tilidan keltirib o‘tiladi. Ya’ni ota-bobolarimiz aytmoqdaki, yurgan odam daryo singari ko‘p narsalarni ko‘radi, o‘tirgan odam esa bo‘yra kabi faqat yonveridagilarga nazari tushadi, qanchalik ko‘p dunyo kezsangiz, shunchalik ko‘p narsani ko‘rasiz.

“— Yurgan daryo, o‘lturgan bo‘ryo emish, — dedi Akram hoji. O‘ris shaharlariga borib savdo qilg‘uchilar Turkistonda juda oz hisobda bo‘lib, chet ellarni ko‘rgan Otabek majliska tansiqlandi. O‘rislar to‘g‘risida allaqanday xayoliy rivoyatlar eshitib yurgan qutidor va Ziyo shohichilar-ning Otabekdan haqiqiy holni bilgilar kelib, undan Shamayda ko‘rib, kechirganlarini so‘radilar. Otabek Shamay xotirohini so‘zlab berdi.”

Bugungi kunda ham ushbu maqol tez-tez ishlatiladi. Otabekning Shamaygacha borganligi va savdo-sotiq ishlarini amalga oshirganligi hammaning



e'tiborini tortadi. Chunki "O'ris shaharlariga borib savdo qilg'uchilar Turkistonda juda oz hisobda bo'lib, chet ellarni ko'rgan Otabek majliska tansiqlandi" deyiladi.

Egasini siylag'an itiga suyak tashlar-kim egasini hurmat qilsa, itiga suyak tashlaydi, tanimasni siylamas, hurmat ma'nosi kelgan."Egasini siylag'an itiga suyak tashlar, qabilidan qizlari tufayli qutidor va Oftob oyimlar ham juda yaxshi izzat ko'rar edilar. Qutidor kelganidan beri bir soat ham uyda bekor qolmay, har kun Yusufbek hojining muxlislaridan birining uyida mehmon va hojining suhbatidan mamnun edi. Oftob oyimni bo'lsa O'zbek oyim o'tqizg'ali joy topmas, quda so'zi o'rniga singlim deb xitob qilar, oshni ham uning ra'yini so'ramasdan buyurmas edi."

Til tegida til saqlamak-gapning ostida nozik ma'nosi bor bo'lmoq. "Kumush ko'tarilib ketdi: Ikki yuzlamalig'ingiz va til tegida til saqlag'a-ningiz ham arzimaydimi? Tushunmay yotibman... Albatta tushunmaysiz va tushunishni ham tilamaysiz.

O'lganni ustiga chiqib tepish—biror yomon holatning ustiga yana boshqasi yuz berishi ma'nosida

"Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan" ushbu maqolda bir-birga mos, munosib degan ma'no anglashiladi." — Koshki edi tegalsam, — dedi To'ybeka, — men uning bir tukiga ham arzimayman. Ammo sen bo'lsang uning bilan tenglashar eding. "Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan". Xa-xa-xa!.. To'ybekaning shuningdek hangomalari boshqa vaqtlarda Kumushni yaxshigina kuldirsa ham hozir unga yotishib kelmadi shekillik, achchig'lang'an ko'yi yotish uchun uyiga kirib ketdi. Oftob oyim "bachcha-machchadir" deb o'ylag'an edi. Shuning uchun bu to'g'rida so'z ochmadi.

"Shari'at ishiga sharm yo'q" - har qanday savolning javobini va to'g'ri ekanligini bilish uchun so'ralgan savolga shunday deyiladi. O'zbek madaniyatigina emas balki butun musulmon ummatiga taalluqli bo'lgan maqol asarda yaqqol ko'zga tashlanadi.



XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘zbeklar turmushini, tarixini, tilini, urf-odatlarini yaxshi bilgan Abdulla Qodiriy ulardan o‘z asarlarida juda unumli va o‘rinli foydalandi. Adibdan qolgan muhtasham adabiy merosda o‘zbek adabiy tilining go‘zalligi, nafosati, tasvir va ifoda imkoniyatlari aynan amaliyotda o‘z aksini topdi. Shu bilan birga Abdulla Qodiriy ba‘zan filolog olimlarga xos qimmatli adabiy-nazariy qarashlari bilan ham o‘zbek adabiy tilining takomiliga xizmat qildi. Bu benazir adabiy-ilmiy xizmatlarni o‘zbek olimlari bilan birga xorijlik mutaxassislar ham e’tirof etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Lingvokulturologiya til va madaniyat fani sifatida rivojlanishi va uning tahlillari. Normurodov. B.
2. O‘tkan kunlar. Roman Abdulla Qodiriy www.ziyouz.com kutubxonasi 2007
3. Shoira Usmonova. “Lingvokulturologiya” darslik. Toshkent 2019
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab..//O‘zbek tili adabiyoti-Toshkent, 2012.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I.I - M: 1981
6. Numonov. A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi // Tanlangan asarlar. 2-jild. Toshkent: Akademnashr,2012.
7. Numonov A. Sepr-Uorfning lingvistik nisbiylik nazariyasi haqida mulohazalar. Toshkent, 2011.